RAQAMLI SAVDONI XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING TAMOYILLARI VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Xayrullayev Husniddin Muzaffar o‘g‘li
“Xalqaro tijorat huquqi” yo‘nalishi bo‘yicha
masofaviy magistratura talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20474994

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi xalqaro savdo munosabatlarini tartibga soluvchi yangi huquqiy mexanizmlar yaratishni taqozo etmoqda. Mazkur maqolada raqamli savdoni xalqaro huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillari: kamsitmaslik, milliy muomala, texnologik betaraflik, funksional ekvivalentlik va “ishonch bilan ma’lumotlarning erkin oqimi” (DFFT) hamda JST, UNCITRAL, UNCTAD va OECD kabi institutsional mexanizmlarning o‘zaro munosabatlari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, institutsional tizimning asosiy muammosi fragmentatsiya turli darajadagi normalar va institutlar o‘rtasidagi koordinatsiya etishmovchiligi bo‘lib, bu raqamli savdoni samarali tartibga solishni qiyinlashtirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi uchun esa gibrid institutsional model ya’ni xalqaro tamoyillarni milliy qonunchilikka izchil joriy etish va JST a’zoligiga intilish optimal yo‘l sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli savdo; xalqaro huquqiy tartibga solish; kamsitmaslik tamoyili; texnologik betaraflik; DFFT; JST; UNCITRAL; UNCTAD; OECD; G7 raqamli savdo tamoyillari; institutsional fragmentatsiya.

Abstract. The rapid development of the digital economy necessitates the creation of new legal mechanisms to regulate international trade relations. This article examines the fundamental principles of international legal regulation of digital trade non-discrimination, national treatment, technological neutrality, functional equivalence, and Data Free Flow with Trust (DFFT) — as well as the interrelationships between institutional mechanisms such as the WTO, UNCITRAL, UNCTAD, and OECD, through a comparative legal analysis. The findings indicate that the primary challenge of the institutional system is fragmentation the lack of coordination between norms and institutions at different levels which complicates the effective governance of digital trade. For the Republic of Uzbekistan, a hybrid institutional model consistent implementation of international principles into national legislation and pursuit of WTO membership is recommended as the optimal path.

Keywords. digital trade; international legal regulation; non-discrimination principle; technological neutrality; DFFT; WTO; UNCITRAL; UNCTAD; OECD; G7 Digital Trade Principles; institutional fragmentation.

Kirish.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida raqamli savdo tobora muhim o‘rin egallayotgan bir sharoitda, uni samarali xalqaro huquqiy tartibga solish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga yuzaga kelgan yangi iqtisodiy hodisalar an’anaviy huquqiy mexanizmlar doirasida to‘liq tartibga solinmaydi va bu holat xalqaro savdo huquqida muhim bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga yuzaga kelgan yangi iqtisodiy hodisalar elektron tijorat, raqamli xizmatlar, chegaralararo ma’lumotlar oqimi, sun’iy intellekt asosidagi tijorat operatsiyalari an’anaviy huquqiy mexanizmlar doirasida to‘liq tartibga

solinmaydi va bu holat xalqaro savdo huquqida muhim bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, mavjud huquqiy arxitektura raqamli iqtisodiyotning dinamikasiga mos kelmaydi va chuqur islohotlarga muhtoj.[1]

Raqamli savdoni xalqaro huquqiy tartibga solish sohasidagi tamoyillar va institutsional mexanizmlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ular turli xalqaro hujjatlar, ilmiy doktrina va amaliyot orqali rivojlanib bormoqda. Jahon miqyosida 2021-yilda amalga oshirilgan OECD tahlili shuni ko‘rsatdiki, xalqaro elektron tijorat bilan bog‘liq 52 ta turli xil huquqiy hujjat 24 ta turli tashkilot tomonidan boshqarilmoqda[2], bu esa tartibga solishning murakkab va fragmentlashgan tuzilmasini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi (PF-6079, 2020) xalqaro elektron tijorat standartlariga muvofiqlikni ta’minlash vazifasini qo‘yadi[3]. Shu boisdan mamlakat uchun xalqaro tamoyillar va institutlar tizimini to‘liq tushunish hamda ulardan foydalanish strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli savdoni xalqaro huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillari va institutsional asoslarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, ularning O‘zbekiston uchun ahamiyatini belgilash hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil va formal-huquqiy metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy metod xalqaro tashkilotlar JST, UNCITRAL, UNCTAD va OECDning tamoyillar va normalar tizimini bir-biri bilan solishtirish, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash imkonini berdi. Formal-huquqiy metod esa tamoyillarning xalqaro hujjatlardagi normativ ifodasi va huquqiy kuchini tahlil qilishda qo‘llanildi.

Natijalar va tahlil.

1. Raqamli savdoni xalqaro huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillari: Xalqaro huquqda tartibga solish tamoyillari konkret qoidalarga nisbatan ustun turuvchi va normalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal etishda yo‘naltiruvchi asosiy qadriyatlardir. Raqamli savdoni tartibga solishda ikki guruh tamoyil ajratiladi: klassik xalqaro savdo tamoyillari va raqamli savdoga xos maxsus tamoyillar.

Kamsitmaslik tamoyili (Non-discrimination). Ushbu tamoyil eng ko‘p qo‘llanib turuvchi davlat (MFN) rejimi va milliy muomala (National Treatment) rejimi orqali namoyon bo‘ladi. MFN tamoyili GATT 1994-ning 1-moddasida va GATS ning 2-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, JST a’zosi o‘z tovar yoki xizmatlariga bir davlatga bergan imtiyozni boshqa barcha a’zo davlatlar uchun ham ta’minlashi lozim.[4]

Raqamli savdoda ushbu tamoyilning tatbiq etilishi muammo yuzaga keltiradi: raqamli mahsulotlar uchun “o‘xshash mahsulot” (like product) tushunchasini belgilash qiyin, chunki bir xil funksiyani bajaruvchi turli texnologik platformalar o‘xshash deb hisoblanishi kerakmi, degan savol hali hal etilmagan.[5]

---

[1] Burri, M. «The Landscape of Global Digital Trade Law» // Journal of International Economic Law. — Vol. 27. — 2024. — PP. 397–423. DOI: 10.1093/jiel/jgae024

[2] OECD. Regulating the Digital Economy: Reflections on the Trade and Innovation Nexus. — Centre for International Governance Innovation, 2022. — URL: https://www.cigionline.org/articles/regulating-the-digital-economy-reflections-on-the-trade-and-innovation-nexus/

[3] WTO. «Principles of the Trading System». — URL: https://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/fact2_e.htm; GATT 1994, I-modda; GATS, II-modda.

[4] Cambridge Core. «On the Non-Discrimination Principles in Digital Trade» // World Trade Review. — 2023.

[5] UNCITRAL. Model Law on Electronic Commerce (MLEC), 1996.

Texnologik betaraflik tamoyili (Technological Neutrality). UNCITRAL tomonidan 1996-yilgi Elektron tijorat bo‘yicha Namunaviy Qonunida birinchi bor mustahkamlangan ushbu tamoyilga ko‘ra, qonuniy normalar muayyan texnologiyani afzal ko‘rmasligi va texnologik taraqqiyotga moslasha olishi kerak.[6] Bu tamoyil huquqiy normalarni sun’iy intellekt, blokcheyn, kvant hisoblash kabi yangi texnologiyalar paydo bo‘lganda doimiy yangilashga ehtiyojsiz qo‘llanilishini ta’minlaydi.

Funksional ekvivalentlik tamoyili (Functional Equivalence). Xuddi shu Namunaviy Qonunda mustahkamlangan ushbu tamoyilga muvofiq, elektron shartnomalar va imzolar qog‘oz asosidagi analoglariga teng huquqiy kuchga ega bo‘lishi lozim. Huquqiy shakl funksiyasi orqali belgilanadi: elektron vosita ushbu funksiyani bajarsa, u qonuniy jihatdan tan olinishi shart.[7] Ushbu tamoyil 100 dan ortiq davlatning milliy qonunchiligiga kiritilgan.

“Ishonch bilan ma’lumotlarning erkin oqimi” tamoyili (DFFT — Data Free Flow with Trust). G7 tomonidan 2021-yil 22-oktyabrdagi Raqamli Savdo Tamoyillarida rasmiylashtirilib, chegaralararo ma’lumotlar oqimi erkin amalga oshirilishi kerak, biroq shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilishning yuqori standarti saqlanib turgan holda deb belgilangan.[8] Ushbu tamoyil ochiq raqamli bozorlar, ma’lumotlarni erkin uzatish, iste’molchilar va biznes uchun kafolatlar, raqamli davlat xizmatlari hamda adolatli xalqaro boshqaruv kabi besh asosiy elementni o‘z ichiga oladi.

Raqamli inklyuzivlik tamoyili (Digital Inclusivity). UNCTAD tomonidan kuzatilib borilayotgan ushbu tamoyil global raqamli bo‘linish (digital divide) muammosini hal etish va raqamli savdoning imtiyozlaridan rivojlanayotgan davlatlar hamda kichik va o‘rta korxonalarning ham bahramand bo‘lishini ta’minlashni talab etadi.[9]

2. Institutsional asoslar: tashkilotlar va ularning vakolat doiralari: Raqamli savdoni tartibga solishning institutsional tizimi murakkab, ko‘p qatlamli tuzilmaga ega. Quyidagi jadvalda asosiy institutlar va ularning vakolat doiralari ko‘rsatilgan:

Tashkilot	Vakolat doirasi	Asosiy hujjatlar	Huquqiy kuchi
JST (WTO)	Ko‘p tomonlama savdo qoidalari, nizo hal etish	GATT, GATS, TRIPS, Elektron tijorat Ish Dasturi (1998)	Majburiy (164 a’zo)
UNCITRAL	Xalqaro savdo huquqini modernizatsiya qilish	Namnaviy Qonunlar (1996–2024), Nyu-York Konvensiyasi (2005)	Ixtiyoriy (model sifatida)
UNCTAD	Rivojlanish o‘lchami, monitoring, texnik yordam	Raqamli iqtisodiyot hisobotlari, eTrade for All	Majburiy emas (tavsiyaviy xarakter)

[6] UNCITRAL. Model Law on Electronic Commerce (MLEC), 1996.
[7] UNCITRAL. Ibid. Funksional ekvivalentlik tamoyili tahlili: DSAP Law Firm. «The Global Governance of Digital Trade: Legal Harmonization and Tax Transformation». — 2026.
[8] G7 Trade Ministers' Digital Trade Principles. — 2021 yil 22-oktabr.
[9] UNCTAD. «E-commerce and the Digital Economy».

OECD	Siyosat tavsiyalari, soliq, ma'lumot himoyasi	BEPS (Pillar 1 va 2), Maxfiylik Ko'rsatmalari (1980)	Yumshoq huquq (soft law)
G7 / G20	Siyosiy yo'nalishlarni belgilash	G7 Raqamli Savdo Tamoyillari (2021)	Majburiy emas (siyosiy ta'sir)

1-jadval. Raqamli savdoni tartibga soluvchi asosiy xalqaro institutlar

3. JST ning markaziy institutsional roli: Jahon Savdo Tashkiloti (JST) 1995-yilda tashkil etilgan va hozirda 164 a'zo davlatni birlashtiruvchi yagona universal xalqaro savdo tashkiloti sifatida raqamli savdoni tartibga solishda markaziy o'rinni egallaydi. JST ning asosiy vazifasi global savdo oqimlarining silliq, bashoratlanuvchan va erkin amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat.[10]

1998-yilda qabul qilingan Elektron tijorat bo'yicha Ish Dasturi (WT/L/274) raqamli savdo sohasidagi birinchi rasmiy ko'p tomonlama hujjat bo'lib, elektron tijoratni "tovar va xizmatlarni elektron vositalar orqali ishlab chiqarish, taqsimlash, marketing qilish, sotish yoki yetkazib berish" sifatida ta'rifladi[11]. 2019-yildan boshlab esa 91 a'zo davlat ishtirokidagi Qo'shma Bayonot tashabbusi (JSI) muzokaralari yangi ko'p tomonlama qoidalar yaratishga qaratilgan bo'lib, 2024-yil iyulda "barqarorlashtirilgan matn" qabul qilindi.

4. UNCITRALning huquqiy-texnik asoslar yaratishdagi roli: UNCITRAL — BMT Bosh Assambleyasi tomonidan xalqaro savdo huquqi sohasidagi asosiy yuridik organ sifatida belgilangan Komissiya raqamli savdoning huquqiy-texnik asoslarini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar 100 dan ortiq davlat tomonidan qabul qilingan[12].

UNCITRALning 2024-yil 11-iyulda qabul qilgan Avtomatlashtirilgan Shartnomalar bo'yicha Namunaviy Qonuni (MLAC) sun'iy intellekt va smart-shartnomalar, shuningdek mashinadan-mashinaga (M2M) tranzaksiyalar doirasida tuzilgan shartnomalar uchun huquqiy asosni birinchi bor xalqaro miqyosda yaratdi. Bu hujjat UNCITRAL olib borgan izlanish ishlarining tarixiy natijasi hisoblanadi.

5. Institutsional fragmentatsiya muammosi: Institutsional tizimning asosiy muammosi fragmentatsiya, ya'ni tarqoqlik. Bu muammo uch ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Vertikal fragmentatsiya: ko'p tomonlama (JST), mintaqaviy (DEPA, CPTPP, EU) va ikki tomonlama (raqamli savdo bitimlari) darajadagi qoidalar tizimlarining o'zaro ziddiyati va takrorlanishi. Turli darajadagi qoidalar o'rtasida uyg'unlik yo'qligi "spagetti idishi" (spaghetti bowl) deb ataladigan murakkab normativ muhitni yuzaga keltiradi.

Gorizontal fragmentatsiya: JST, UNCITRAL, UNCTAD, OECD, G7 va G20 bir-biridan mustaqil ravishda qoidalar ishlab chiqishi natijasida normalar o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'lish xavfi ortadi.

[10] WTO. «The Conceptual Framework for Measuring Digital Trade». — URL: https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/digital_trade_23_ch2_e.pdf
[11] WTO. Work Programme on Electronic Commerce (WT/L/274). — 1998 yil 25-sentabr. — URL: https://www.wto.org/english/tratop_e/ecom_e/wkprog_e.htm
[12] UNCITRAL. «Electronic Commerce». — URL: https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce

Mazmuniy bo‘shliqlar: ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish, raqamli mahsulotlarni tasniflash, AI asosidagi tijorat va kiberxavfsizlikka oid xalqaro miqyosda kelishilgan normalar hali to‘liq shakillanmagan.[13]

Muhokama.

Tadqiqot natijalarini solishtirish shuni ko‘rsatadiki, raqamli savdoni tartibga solishning tamoyillari ikki guruhdan iborat bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Klassik savdo tamoyillari (MFN, milliy muomala, shaffoflik) an’anaviy xalqaro savdo huquqidan o‘tib, raqamli muhitga moslashtirilmoqda. Raqamli savdoga xos maxsus tamoyillar esa (texnologik betaraflik, funksional ekvivalentlik, DFFT) asosan UNCITRAL va G7 hujjatlari orqali shakllanmoqda.

Institutsional darajada esa muammo aniqroq: 52 ta turli hujjat va 24 ta turli tashkilot tomonidan boshqarilishi koordinatsiya muammosini yuzaga keltirmoqda. Bu holat raqamli savdo subyektlari uchun huquqiy noaniqlikni kuchaytiradi va ularning xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatini qiyinlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun ushbu tahlil bir necha muhim xulosani anglatadi. Birinchidan, JST a’zoligiga intilishni jadallashtirishsiz xalqaro raqamli savdo huquqidagi ko‘p tomonlama muzokaralarda to‘liq ishtirok etish mumkin emas. Ikkinchidan, UNCITRAL Model Qonunlarini, xususan 2024-yilgi MLAC ni milliy qonunchilikka joriy etish dolzarb vazifadir.

Tavsiyalar

Birinchidan, “prezumpsiya muvofiqlik” prinsipi asosida xalqaro standartlarga mos normativ bazani shakllantirish lozim: UNCITRAL Namunaviy Qonunlari (1996–2024) milliy qonunchilikka to‘liq joriy etilishi kerak.

Ikkinchidan, JST a’zoligiga kirishni tezlashtirish va shu orqali JSI muzokaralarida to‘liq ishtirok etish imkoniga ega bo‘lish zarur.

Uchinchidan, UNCTAD “eTrade for All” tashabbusidan to‘liq foydalanish va rivojlanish yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni kengaytirish kerak.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston uchun optimal model gibrid yondashuv: JST tamoyillarining sistemaliligi, UNCITRAL mexanizmlarining texnik puxtaligi va OECD siyosat tavsiyalarining amaliy yo‘naltirilganligi birlashtirilishi lozim.

Xulosa.

Raqamli savdoni xalqaro huquqiy tartibga solishning tamoyillari va institutsional asoslari hali to‘liq shakllanmagan, lekin izchil rivojlanmoqda. Kamsitmaslik, texnologik betaraflik, funksional ekvivalentlik va DFFT kabi tamoyillar tizimi turli xalqaro hujjatlarda mustahkamlanmoqda. Institutsional jihatdan esa JST markaziy o‘rin egallaydi, UNCITRAL huquqiy-texnik asoslarni ta’minlaydi, UNCTAD rivojlanish o‘lchamini ta’kidlaydi, OECD esa siyosat tavsiyalarini shakllantiradi.

Asosiy muammo 52 ta hujjat va 24 ta tashkilot orqali namoyon bo‘ladigan institutsional fragmentatsiya xalqaro raqamli savdo huquqining eng dolzarb ilmiy muammosi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston uchun esa gibrid institutsional model xalqaro tamoyillarni milliy qonunchilikka joriy etish, JST a’zoligiga intilish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish optimal strategik yo‘l hisoblanadi.

[13] Springer Nature Link. «Towards Reconciling Digital Trade and Data Privacy». — URL: https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-73857-9_6

Adabiyotlar ro‘yxati

1. IMF, OECD, UNCTAD, WTO. Handbook on Measuring Digital Trade, 2-nashr. — 2023;
2. WTO. Work Programme on Electronic Commerce (WT/L/274). — 1998;
3. UNCITRAL. Model Law on Electronic Commerce (MLEC). — 1996;
4. UNCITRAL. Model Law on Automated Contracting (2024);
5. UNCTAD. E-commerce and the Digital Economy;
6. G7 Trade Ministers. Digital Trade Principles. — 2021;
7. OECD. Privacy and Data Protection — OECD Privacy Guidelines;
8. OECD. Multilateral Convention to Implement Amount A of Pillar One;
9. Burri, M. «The Landscape of Global Digital Trade Law» // Journal of International Economic Law, Vol. 27. — 2024. — PP. 397–423;
10. Centre for International Governance Innovation. Regulating the Digital Economy. — 2022;
11. DSAP Law Firm. “The Global Governance of Digital Trade”. — 2026;
12. Digital Trade Alliance. The Development of Digital Trade Agreements. — 2024;
13. O‘zbekiston Respublikasi. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun №: O‘RQ-792-son. — 2022;
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston-2030” №: PF-6079-son. — 2020;
15. WTO. Joint Statement on Electronic Commerce (MC11). — 2017.